

**ВАЗОРАТИ МАОРИФ ВА ИЛМИ ҶУМҲУРИИ ТОҶИКИСТОН
ДОНИШКАДАИ ОМУЌЗОРИИ
ТОҶИКИСТОН ДАР ШАҲРИ ПАНҶАКЕНТ**



**ПАЁМИ ДОНИШКАДА
ТАФАККУРИ ТАЪРИХ
АНВОРИ ИЛМ**

№1,2, 3 - 2024

**ВЕСТНИК ИНСТИТУТА
ПОЗНАНИЕ ИСТОРИИ
СВЕТОЧ НАУКИ**

№1,2, 3 - 2024

**BULLETIN OF THE INSTITUTE
KNOWLEDGE OF HISTORY
LIGHT OF SCIENCE**

№1,2, 3 - 2024

Нашри махсус/Специальное издание/Special edition



Панҷакент-2024
[https:// Dotpanj.tj](https://Dotpanj.tj)

1925 йилдан мамлакатда индустриштириш сиёсати амалга оширила бошлаганда, Термиз бу жараёнда деярли иштирок этмайди. Умуман, собиқ совет ҳокимияти ҳукмронлик қилган даврда Термизда XX аср бошида ишга туширилган саноат корхоналари таъмирланади ёки кенгайтирилади. Ж. Мирзаев томонидан ёзилган мақолада Сурхондарёда қишлоқ хўжалигининг ўзига хос хусусияти унда пайкал хўжалигининг устиворлиги борасида хулосага келади. Сурхондарёда маҳаллий ҳокимият томонидан пайкалларни советлаштириш шиори ўртага ташланади¹. Пайкал хўжалик юритиш услуби жараёнини ўрганар экан, Ж.З.Мирзаев ундаги сайловлар тизими асосида демократиянинг миллий усули ҳақида хулоса қилади².

С.Турсунов, А.Тўхтаевларнинг “Жарқўрғон”³, С.Турсунов, Қ.Рашидов “Бойсун”⁴, 2019 йилда қайта нашр қилинган “Жарқўрғон тарихидан лавҳалар”⁵, номли монографияларда биз ўрганаётган давр 1925-1941 йиллардаги воқеликларни ҳам ёритишга ҳаракат қилган. Лекин, мустақиллик даврида чоп этилган адабиётлар билан бир-бирини такрорлаш ҳоллари учраб туради. А.Рўзиевнинг “Сурхондарё вилояти”⁶ китобида воҳанинг географик ўрни ва чегаралари, халқ хўжалиги, деҳқончилик, саноат, транспорт коммуникациялари, маориф ва маданият, соғлиқни сақлаш масалалари ҳақида ўз фикрларини баён қилган бўлиб, биз ўрганаётган давр ҳақида жуда кам маълумот берилганлиги билан фарқланади.

Шунингдек, мустақиллик йилларида ҳимоя қилинган диссертацияларда XX асрнинг 1920-1930 йилларида Сурхон воҳасидаги ижтимоий, иқтисодий ва маданий жараёнлар қисман ёритилган. М.Мирзаевнинг “Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши”⁷ (1917-1941йй) номли тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертациясида мазкур давр бўйича Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш тўғрисида ўзининг илмий ишида Ўзбекистоннинг вилоятларида олиб борилган археологик экспедициялар ва музейлар уларнинг экспонатлари ва тарихий обидаларининг сақланиши алоҳида баён қилган.

Хусусан Сурхон воҳаси мисолида ҳам айрим маълумотларни келтириб ўтганлигининг гувоҳи бўламиз. А.Тўхтаевнинг “Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ва уни “социалистик” асосда саноатлаштиришнинг ижтимоий оқибатлари (1917-1941йй)” номли тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертациясида мазкур давр бўйича ҳунармандчилик ишлаб чиқариши ва бу соҳанинг жамиятда алоҳида мавқега эга бўлганлиги ва халқ амалий санъатининг кўплаб турлари

¹Мирзаев Ж.З. Деҳқончиликда пайкал тизими: тарихи, хусусиятлари, сабоклари. Термиз Давлат иверситети профессор ўқитувчиларининг илмий назарий конференцияси материаллари.-Тошкент: «Университет», 1999.126-132 бетлар.

²Мирзаев Ж.З. Демократиянинг миллий негизлари: тарихий анъаналардан умуминсоний тамойилларга.Баркамол инсон тарбияси. Термиз Давлат университети ижтимоий фанлар факультети профессор-ўқитувчиларининг илмий-назарий мақолалар тўплами. Термиз, 2001.120-125б.

³Турсунов. С. Тўхтаев. А. Жарқўрғон. – Т., Фан, 2008.

⁴Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун – Тошкент: Академнашр, 2011.

⁵С.Турсунов А.Тўхтаевлар З.Аннаевларнинг Жарқўрғон тарихидан лавҳалар. – Т., “ЯНГИ НАШР” 2019 й.

⁶Рўзиев А. Сурхондарё вилояти. –Т ., Жайхун, 1996.

⁷Мирзаев М. Становление и развитие дела охраны и изучения памятников истории и культуры в Узбекистане (1917-1941гг). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук.-Т., 1994 г. Тўхтаев А. Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ва уни “социалистик” асосда саноатлаштиришнинг ижтимоий оқибатлари (1917-1941 йй). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т., 2001. Абдурахмонова Ж. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё, Қашқадарё вилояти мисолида 1925-1941йй). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т ., 2002.; Бўриев С. XX асрда Сурхон-Шеробод воҳасининг суғорилиш тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т ., 2008 й.

ҳақида, ҳунармандчилик ишлаб чиқаришининг бутун Туркистон ҳудуди бўйича географик ўрни ва ўзига хос йўналишда ривожланганлиги баён қилинган.

Ж.Абдурахмонованинг “Совет ҳукуматининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати Самарқанд, Сурхондарё, Қашқадарё вилоятлари мисолида (1925-1941 йй)” номли диссертациясида таълим соҳасида қатағонликка учраган маориф ходимлари ҳақида, Ўзбекистонда совет мактаблари сонини ошириш, катта ёшли аҳоли учун эса саводсизликни тугатиш мактаблари борасида қилинган ишлар ҳақида баён қилинган. Диссертацияда Ўзбекистоннинг Самарқанд, Сурхондарё ҳамда Қашқадарё вилоятлари таълим тизимида совет сиёсатининг ўрнатилиши натижасида юзага келган аҳвол ва маданий муассасалардан “Қизил чойхона” “Қизил клублар” очилиши ва уларнинг фаолияти, совет мафкурасининг ўрни Сурхон воҳаси бўйича қисқа маълумотлар берилган..

Мавжуд адабиётлар ва тадқиқотлар таҳлили шундан далолат берадики, биз ўрганган давр алоҳида тадқиқот мавзуси сифатида ўрганилмаган. Муаммонинг ўрганилмаганлиги, унинг ҳозирги кунда мамлакатимиз учун нафақат илмий-назарий ва амалий, балки ижтимоий аҳамияти ҳам долзарблигини эътиборга олиб, уни ўрганишга жазм қилдик.



**Iskandarov Fayzulla Mashrabovich,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, PhD doktor
Solijonov Sayfillo Shavkatjon o‘g‘li
160-maktab o‘qituvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston
mfayzullaiskandarov@gmail.com**

ALISHER NAVOIY DOSTONLARIDA ABDURAHMON JOMIY MADHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ijodiy hamkorligi, temuriylar davri adabiyotida tutgan o‘rni yoritildi. Ularning ustoz-shogirdlik, hamfikir, hammaslak va do‘stona munosabatlari qisman “Xamsat ul-mutahayyirin” asari misolida asoslanib, Abdurahmon Jomiy siymosining Navoiy ijodiga ta’siri, ularning ijodiy hamkorligi, Jomiyning komillik sifatleri Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi muqaddima boblar asosida tahlil qilindi. Forsiy va turkiy adabiyotga har ikki siymoning rivojlanishi va taraqqiyotiga qo‘shgan hissaleri aniq misollar asosida ko‘rsatib berildi.

Kalit so‘zlar: madh, komillik, pir, tariqat, tasavvufiy adabiyot, so‘fiy, xamsanavislik

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr hamda Xurosonda mustaqil davlatning tuzilishi, iqtisodiy-siyosiy jihatdan ravnaq topishi, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, tasviriy san‘at, me‘morchilik, hunarmandchilik kabi sohalarini insoniyat tamadduning rivojiga katta hissa qo‘shishiga asos bo‘ldi. Ushbu davr madaniy hayotini kuzatar ekanmiz, temuriy shahzoda Mirzo Ulug‘bek boshchiligidagi Samarqand va Buxoro ilm-u ma‘rifat dargohiga aylantirilib, diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilishi keng yo‘lga qo‘yildi. Natijada, Shamsuddin Havofiy, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi yetuk olimlar, Sharafuddin Ali Yazdiy, Sakkokiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Durbek kabi ijodkorlar, Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Kitob, Mirak Naqqosh, Qosim Ali kabi xattotlar, Kamoliddin Behzod kabi rassomlar yetishib chiqdi. Ayniqsa, diniy-tasavvufiy ilmlar, xususan, naqshbandlik tariqati Xo‘ja Ahror Valiy kabi shayxlar tomonidan yuksak

darajaga ko‘tarildi, tasavvufiy mazmun bilan oziqlangan ko‘plab badiiy asarlar yaratildi. Tasavvuf tom ma‘noda ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayotda amaliy harakatga aylanib, ijodkorlarning adabiy-estetik, diniy-axloqiy qarashlarining asosini tashkil etadigan katta ma‘naviy ta‘limotga aylandi. Ana shu ma‘naviy ta‘limot asosida shakllangan Alisher Navoiy ijodiyoti tufayli turkiy tilning nufuzi ortib, turkiy adabiyot buyuk ma‘naviy maxzanga aylandi. Alisher Navoiy esa jahonning buyuk shoirlari qatoridan joy oldi.

Alisher Navoiyni buyuk shoir bo‘lib yetishishida olgan tarbiyasi, oilaviy sharoyit, zamon, ijtimoiy muhit hamda ustozlarning o‘rni katta. Navoiy kamolotida ulug‘ fors shoiri Abdurahmon Jomiyning o‘rni beqiyosdir. Navoiy ijodiyotini kuzatar ekanmiz, shoir har bir asarining muqaddimotlarida, albatta, o‘z ustozlarini faxr bilan tilga oladi. Ularning har biriga alohida boblar ajratib, madh etadi. Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmoh Jomiy, Lutfiylarni o‘ziga ustoz, pir deb bilgan va o‘z yutuqlarida ularning xizmatlarini ta’kidlab o‘tadi.

Navoiyga ana shunday ma‘naviy-marifiy ta’sir o‘tkaza olgan zamondoshi, buyuk shoir Abdurahmon Jomiy alohida tilga oladi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy munosabatlari orasidagi ustoz-shogirtlik aloqalari hamma davr uchun eng chiroyli, eng namunali ibrat deyish mumkin. Chunki, Jomiy Navoiyning ustози, ijodiy hamkori, piri bo‘lib, Amonullo Valixonov aytganlaridek, “non do‘st emas, balki jon do‘st” edilar. Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy tirikligidayoq “Xamsa”ning tarkibidagi barcha dostonlarda maxsus boblarda, “Majolisun nafois”da alohida majlisda madh etsa, Jomiyning vafotidan keyin yaratilgan barcha asarlarida ustozining nomini alohida ehtirom bilan tilga oladi. Jomiy vafotidan so‘ng unga bag‘ishlab, maxsus “Xamsat ul-mutahayyirin” asarini bitadi.

“Xamsat ul-mutahayyirin” basmala bobi, muqaddima, uch maqolat va xotimadan, ya’ni jami besh qismdan iborat. Hazrat Navoiy hamd-u na’tlardan so‘ng, Jomiy ta’rifini keltirib, asarning har bir qismida aynan nimalar haqida to‘xtalishini o‘zi batafsil hikoya qiladi. Dastlab, muqaddimada Jomiyning tug‘ilishi, nasabi, bolalik va yigitlik davri, ustozlari va piri, zohiriy va botiniy ilmda erishgan darajasi hamda Jomiy bilan ilk bor uchrashgani haqida so‘z yuritsa, “Avvalgi maqolat”da ikki ijodkor o‘rtasidagi nozik ustoz-shogirdlik munosabatlarini aks ettiruvchi 17 ta hikoyat keltiriladi.

“Ikkinchi maqolat” – Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi turli yozishmalar va ular bilan bog‘liq voqealarni qamrab olgan 13 ta hikoyat haqida bo‘lsa, “Uchinchi maqolat” – Jomiy asarlari ro‘yxati (37 ta kitob va risola keltirilgan), shuningdek, ikki buyuk ijodkorning bir-biriga adabiy ta’sir etishi natijasida dunyoga kelgan asarlar haqida ma’lumot beriladi.

“Xotima” – Navoiy Jomiy huzurida o‘qigan va ta’lim olgan kitob va risolalar ro‘yxati, Jomiyning karomatlari bilan bog‘liq 5 hikoyat, Jomiy vafotining tafsilotlari, Navoiyning ustoziga atab yozgan marsiyasi bilan yakunlanadi. Aytish mumkinki, bu Navoiy tomonidan yozilgan Jomiyning qisqacha tarjimai holidir.

Alisher Navoiy tomonidan ustози Abdurahmon Jomiyga bitilgan ta’rif-u tavsiflar orasida “Xamsa” muqaddimotlaridagi maxsus madh boblarning o‘rni mislsiz.

Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy “Xamsa” dostonlarida maxsus boblarda ideal-komillik timsoli sifatida madh etarkan, ul zotning “vasfikim, vasfg‘a sig‘mas, ta’rifikim, ta’rifg‘a rost kelmas” deb ulug‘laydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, barcha dostonlarda ustoziga haqida bir so‘z aytishni istaydi. Jumladan, “Hayrat ul-abror” dostonida 65 bayt, “Farhod va Shirin” dostonida 34 bayt, “Layli va Majnun” dostonida 40 bayt, “Sab’ai sayyor” dostonida 41 bayt hamda “Saddi Iskandariy” dostonida 44 bayt, jami 240 baytni Jomiy vasfiga bag‘ishlaydi.

“Abdurahmon Jomiy Navoiy uchun ideal komillik – timsoli. Madhlarning barchasi ana shu mezonda bitilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Navoiy mubolag‘a san’atining mohir ustasi bo‘lib ko‘rinar edi. Aslida unday emas. Navoiyning nazarida Jomiy hech bir mubolag‘asiz ana shu ta’riflarga munosib”[Mullaxo‘jayeva, 75: 2019] deydi. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni Jomiy ta’rifini shunday boshlaydi:

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,

Koshifi asrori haqiqatdur ul.
Ko'ksi haqoyiq duri ganjina,
Ko'ngli maoniy yuzi oyina.
Oliy anga yeti falakdin mahal,
Yeti falak mushkili ollida hal.

Jomiy Navoiy uchun nafaqat, ustoz hammaslak balki, tariqatda pir maqomidagi rahnamo edi.

Shuning uchun Navoiy Ul zotni tariqatning qutbi, haq sirlarini ochuvchi koshif, ko'ksi haqiqatlar xazinasi, ko'ngli ma'nolar oynasi deb ulug'laydi. “Jomiy chindan ham zohir-u botin ilmini muakammal bilgan, zamonasining eng mashhur kishisi edi. Hazrat Navoiy o'ziga pir deb bilgan bu inson murshidlari Sa'diddin Qashg'ariy qo'lida, Xo'ja Ahror Valiy rahnamoligida kamol topdi” [Mullaxo'jayeva, 77: 2019] Jomiyni har tomonla mukammal komil shaxsiyat sifatida ko'radi va shunday vasflaydi:

Ne kamolat aro nihoyat anga,
Ne marotibda hadd-u g'oyat anga.
To kamol ahlidin maqol o'lg'ay,
Odami ziynati kamol o'lg'ay.

Komillik inson ziynatidir. Biroq unga erishish mashaqqatli yo'l bo'lib, bir umr davom etadigan jarayondir. Komillikka intilgan har bir solik uchun, albatta, ustozning, piring yordami, maslahati lozim. Shu ma'noda, Abdurahmon Jomiy Navoiyga shaxsiy hayotda, ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, ijodda pir maqomidagi ustoz edi:

Madrasayi Quds aning ma'mani,
Xonaqahi uns aning maskani.
Jilvagahi gulshani charxi barin,
Obxo'ri chashmayi ayn-ul yaqin.
Qasri kalomi chiqib andoq baland,
Kim anga gardun sola olmay kamand.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida Jomiyni komillik sifatlarini ta'riflab, ulug' ustoz hamda buyuk xamsanavis sifatida vasflagan bo'lsa, “Farhod va Shirin” dostonida Jomiy madhini bitar ekan, Navoiy o'z murshidining “Xamsa” yozish madadkor, ma'naviy qo'llab-quvvatlab turuvchi pir sifatida ta'riflaydi. Bu yo'lda unga madad berishini istab shunday yozadi:

Navoiykim murid-u bandasidur,
Irodat yo'lida afgandasidur.
Ham ul gavhar bilan ko'nglin yorutqil,
Ham ul shakkar bila komil chuchutgil.

“Layli va Majnun” dostonida Jomiy madhini bitayotgan Navoiy, Jomiyni sifatlab, undan madad so'rash bilan birga, uning ijodiga katta baho beradi.

Nazming sifati bayondin ortuq,
Nasringniki dermen ondin ortuq.
To nukta ulusqa kom bo'lg'ay,
Fayzi aning elga om bo'lg'ay.
Fayzing bila bahramand olam,
Olam eli poymoli, men ham.

O'zining “Xamsa” yozish yo'lidagi mas'uliyatini qattiq his etgan Navoiy, o'z qudratiga ishonadi. Ya'ni, salafkari kabi “Xamsa” yoza oladi. Bunga Jomiyning shoirga bildirgan ishonchi asosiy sabab bo'lsa ajab emas.

Lek menga oldida ajz-u niyoz,
Barcha ulusdin beribon imtiyoz.
Mehridin ofoq aro gar nurdur,
Zarra aning mehrida mashhurdur.

Zero, “Xamsa” yaratishni boshlagan Navoiy Jomiyni har jihatdan mukammal, yuksak, qudratli bir siymo deb, tasavvur etardi:

Gunbadiyi hujrada zoti nihon,
O‘ylaki ko‘k gunbazi ichra jahon.
Qaysi jahon olami Kubro degil,
Qudrati Alloh-u taolo degil.

Jomiy tasavvufda naqshbandiya tariqatining yirik vakili edi. U zimdan naqshbandiyaga ruhan mos bo‘lgan malomatiya oqimiga, uning odobiga amal qilar edi. Buni Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin”da alohida ta’kidlab o‘tadi. Malomatiylarning botiniy olamlari zohirda aks etmasligi, ya’ni ular tashqi tarafdin oddiy odamlardan aslo farqlanmasligi, shuningdek, ularning so‘fiyligini hech kim sezmasligi kerak. Ular o‘ta kamtarlik bilan o‘zlariga malomat yog‘dirishni istaganlar. Biror kishidan malomat ko‘rsa, ya’ni kimdir ularni kamsitsa, mensimaslik qilsa, buni ular o‘zlari uchun faxr deb bilishgan. Jomiy ham kamtarlikning oliy namunasini ko‘rsatib, o‘ziga malomat yog‘dirishni xush ko‘rgan”[Olimov, 55: 2014]. Navoiy “Sab’al sayyor” dostonida Jomiyning aynan so‘filik sifatlariga to‘xtaladi:

Faqr ichinda imomi olam ul,
Qaysi olam, imomi A‘zam ul.
So‘zidan fiqh eliga zeb-u baho,
Mas‘ala desa hayratul fuqaho.
Far edikim, deyildi – bu necha fasl,
Ilmi faqr-u fano bo‘lub anga asl.
Oncha aylab fanoda nafyi vujud
Ki, bo‘lub mujibi baqo topibon.

Hamda tasavvufiy asarlarini nomma nom keltiradi. Ularning adabiy qimmati, ma’rifiy ahamiyati va badiiy jihatlariga yuksak baho beradi.

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida “Xamsa”ning besh dostonini yozishda ruhlantirgan ijodkorlar haqida “Avvalkim “Hayrat ul-abror” bog‘ida tab‘im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi “Maxzan ul-asror”idin boshimga durlar sochibdur”deb, “Farhod va Shirin”ni Xusrav Dehlaviydan, “Layli va Majnun”ni Himmatiydan, “Sab’al sayyor”ni Ashraf Marog‘iydan, “Saddi Iskandariy”ni ustoz Jomiy”[Navoiy, 25:2010]dan ilhomlanib yaratganini yozib qoldirgan.

“Xamsa”ning yakunlovchi – beshinchi dostoni “Saddi Iskandariy”da o‘zining shohlik, ijtimoiy adolat va komillik hamda mukammal jamiyat haqidagi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tasavvufiy qarashlarini bayon etgan Navoiy, salaflarining xususiyatlarini ta’rif-u tavsif etgan. Hayoti ibrat, ko‘rsatgan yo‘li yashash tarzi, o‘rgatgan ta’limoti hayotiy e’tiqod bo‘lgan buyuk ustoz, komillik timsoli – Abdurahmon Jomiy madhini yaratishga jiddiy mas’uliyat bilan yondashgan Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida mas’uliyati yana ham ortadi. Sababi doston yakunlovchi xulosaviy xarakterdagi doton bo‘lgani uchun, qaysidir ma’noda, Navoiy ham Jomiy haqidagi fikr-mulohazalarini umumlashtirib, xulosalab yakunlashi lozim edi. Shoir bu mushkil vazifani qoyilmaqom qilib uddasidan chiqdi:

Hadisini el jonig‘a voya qil,
Hamul voyadin jong‘a sarmoya qil.
Bu sarmoyadin bizga kome yetur,
Labolab mayi vasli Jomiy yetur.
Ki, Jomiyg‘a o‘zni qilib jur‘akash,
So‘z aylay ado, mast-u devonavash.

Navoiy va Jomiy aloqalarini, ijodiy hamkorligini, shaxsiyatini o‘rganish har ikkala shoirning adabiyot sohasidagi yangijod qirralarini kashf etishiga, har ikki ijod sohibining adabiy merosini boyitishga xizmat qiluvchi omillarni yaratishga yordam beradi. Ayni shu o‘rinda, Abdurahmon Jomiyning Navoiyga bo‘lgan munosabat esga olish lozim. Jomiy o‘zining dostonlari, she’rlari, tazkira va ilmiy asarlarida uchraydigan faxriya, madhiya, qit‘alari ham Hazrat Navoiy maqtaydi. Ayniqsa, o‘zining shoh asari “Haft avrang” ning

deyarli barcha dostonlarida Navoiy haqida o‘z dil so‘zlarini nazm ipiga teradi. Jomiy Alisher Navoiy bilan bir davrda hamnafas bo‘lish nasib etgani tufayli ham yaratganga shukronalar keltirib o‘tadi. Alisher Navoiy nafaqat turkiy balki forsiy ijodiga ham katta baho beradi:

Ба мезони он назми муъжизнизом,
Низоми ки будио хирав кудом.
Чу у бар забони дигар нукта ронд,
Хирадро ба тамизашон роҳ намонд.
Зи табъи ту устои сухан,
Зи мифтоҳи килкат кушоди сухан.
Суханроки аз равнақ уфтода буд,
Ба кунжи хавон рахт бинҳода буд.
Ту доди дигар бора ин обрӯй,
Кашиди ба жавлонгаҳи гуфтугуй.
Сафоёб аз нури рои ту шуд,
Навоин 3-лутфи навое ту шуд.¹⁴

(Ul mo‘jiza nazm qarshisida Navoiy kim ediyu, Xisrav kim bo‘lib qoldi. U o‘zga tilda ijod qilganda uti anglashga aql tasavvuri torlik qildi. Ey suxan ustoz, sen ta‘bing ila til xazinasini ochding. Rivojlanmay chekkada xor bo‘lgan so‘zga (tilga) Sen qaytadan obro‘ berding va so‘z maydoniga olib chiqding. U sening fikring nuri ila toza bo‘ldi va sening lutfing navosidan navoli bo‘ldi.)

Xulosa qilib aytish mumkin, oxirgi yillardagi tadqiqotlarda, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy sohadagi hamkorliklarning rivojlanishi, aloqalarning yangi bosqichga ko‘tarilishi har ikki shoir ijodini, asarlarni o‘rganish va o‘qitish bo‘yicha yangi-yangi vazifalarni kundalik dolzarb vazifa qilib qo‘yayapti. Sababi e‘tiqodi, yashash tarzi, diniy-tasavvufiy, axloqiy qarashlari bir xil bo‘lgan ikki millat uchun Jomiy va Navoiy asarlaridagi diniy-tasavvufiy, umuman, irfoni mazmunni badiiyat masalalari bilan uyg‘unlikda o‘rganish tadqiq etish juda muhim.

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamlashtirish, gumanistik globalizatsiya va integratsiya jarayonlarida har bir millat o‘z qadriyatlarini, urf-odatlarini hamda milliy adabiy merosini chuqur o‘rganish orqali uni targ‘ib etishning zamonni o‘zi taqozo etayapti. Bu borada katta mamlakatlarning mafkuraviy tendensiyalari kuchayib borayotgani, bizga yot madaniyatni targ‘ib etayotgani ayni haqiqat. Shu bois, Navoiy va Jomiyning o‘zaro do‘stlik rishtalarini biz yosh tadqiqotchilar davom ettirib, Jomiy, Navoiy shaxsiyatini o‘rganishda, asarlarini tadqiq etish, mazmun-mohiyatiga kirib borish, ularning zulma‘naynlik xususiyatlarini ochishda hamda haqiqiy adabiy-estetik bahosini berishda doimo hamkorlik rishtalarini bog‘lashimiz, birgalikda tadqiq etishimiz lozim.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А. Джами. Хирадномаи Искандари. Критический текст и предисловие Г.А.Тарбията. Москва, Наука, 1984, стр. 448.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006
4. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006
5. Alisher Navoiy. Sab‘ai sayyor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006
6. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

		BOSQICHLARI	
63.	Дармонова М. А.	АБДУВОСИҚ МУҲАММЕДОВ: ҲАЁТИ, ФАОЛИЯТИ ВА ҚИСМАТИ	303
64.	Дехқонов М. Р.	ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРИДА ИЖТИМОИЙ ТАРАҚҚИЁНИНГ УЗУЛУКСИЗ ЖАРАЁНИ	306
65.	Дехқонова М. У.	МУАММОҲОИ ЭКОЛОГИИ ОБ ВА БЕХАТАРИИ ОЗУҚАВОРЙ ДАР ТОҶИКИСТОН	310
66.	Джалилов М. Ш.	НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В ИСТОРИОГРАФИИ ТАДЖИКИСТАНА	313
67.	Джумаев М. И.	НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ В ШКОЛАХ ТАДЖИКСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ	319
68.	Джумаев У. С.	МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ И МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНО- КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ	324
69.	Джумаев Ж. М.	ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	329
70.	Djuraev Mabruk	NAVOIYNING “DEVONI FONIY”SI XORIYLIK OLIMLARNING TADQIQOTLARIDA	334
71.	Джураев Х. Х.	ИСКУССТВО КАЛЛИГРАФИИ – ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ ОТ ПРЕДКОВ НАМ	337
72.	Eshchanova G. O. Xalmuratova I. S.	“EDIGO” DOSTONI FOLKLORSHUNOSLAR TALQINIDA	342
73.	Жаббарова Х.К.	ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИНГ ПЕДАГОГИК, ПСИХОЛОГИК ВА ФАЛСАФИЙ ТАСНИФИ	348
74.	Джабборовва М. К.	СУЩНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ	350
75.	Джалилов Д.М.	ФАКТОРЫ ПОЯВЛЕНИЯ ПРЕДМЕТОВ ТРАДИЦИИ КОРОЧЕСТВЕННЫХ ОБЩИН В ПАМЯТНИКАХ ГОНЧАРНОЙ КУЛЬТУРЫ	355
76.	Жумаев Жонибек	МОВАРОУННАҲРЛИК АЛЛОМАЛАРНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАФАККУР СОҲАСИДАГИ МЕРОСИ	359
77.	Djumaev M. Sharifova G. H.	MAKTABGACHA TA'LIM TAYYORLOV GURUHDARIDA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISHDA TA'LIM UZVIYLIGI VA UZLUKSIZLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	362
78.	Жумаева Ф. Р.	ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КАК ОДИН ИЗ ТИПОВ ТРАНСПОЗИЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ	367
79.	Жумаева Ш. Ч.	АГРАР СОҲАДА ОЛИЙ МАЪЛУМОТЛИ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР НАТИЖАСИ	370
80.	Жўраев А. М.	ЎЗБЕКИСТОН ВА ТОЖИКИСТОН: СТРАТЕГИК ШЕРИКЛИК ВА ИТТИФОКЧИЛИГИ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ	374
81.	Zayniyeva Y. F.	“BOBURNOMA” ASARIDA BA'ZI JOY NOMLARINING INGLIZCHA TARJIMALARDAGI XILMA XILLIGI	379
82.	Зарипова Р. И.	АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСТОРИИ, ЭКОНОМИКИ И КУЛЬТУРЫ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	382
83.	Зафари Умар	ВЛИЯНИЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ ДВУХВАЛЕНТНЫХ АКТИВАТОРОВ НА ИНТЕНСИВНОСТЬ ЛЮМИНЕСЦЕНЦИИ	386